



№13 Ma`ruza

EKOLOGIK MONITORING, AUDIT VA MENEJMENT

REJA:

- 1. Ekologik monitoring – nazorat tushunchasi**
- 2. Ekologik monitoringning maqsadi**
- 3. Ekologik monitoringning bosqichlari**
- 4. Ecologik aydit to`g`risida**
- 5. Ekologiyk menejment tushunchasi**
- 6. O`zbekistonda atrof-muhit monitoringini amalga oshirish**

Lektor: T.f.d., Ekologiya va hayot xavfsizligi xalqaro fanlar akademiyasi a`zosi Jumayeva D.J.

Ekologik aforizmlar



«Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalliklaridan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi».

I.A.Karimov

Ekologik monitoring – nazorat haqida


XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab fan va texnika inqilobi natijasida jamiyatning tabiatga ta'siri kuchayib ketdi. Oqibatda sayyoraviy, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar kelib chiqqan boshladi. Bu esa atrof muhit holatini doimiy kuzatib borish tizimini tashkil qilishni taqozo etdi. Shu munosabat bilan fanda yangi, monitoring (lotincha «monitor»-esga soladigan, ogohlantiradigan) tushunchasi paydo bo'ldi. Hammamizga ma'lumki, ekologik huquqiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida ekologiya nazorati muhim vazifalarni amalga oshiradi. Ekologiya monitoruingi bu – davlat ekologik siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida tabiat-jamiyat tizimidagi ekologik munosabatlarning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir.



Ekologik monitoring haqida

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof muhitni muhofaza qilish maqsadida ma'lum bir hudud tabiiy sharoitining holatini kuzatish, nazorat qilish va boshqarish tizimidir.

Ekologiya nazorati – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik havfsizlikni ta'minlash qoida-talablarini barcha vazirlik, davlat qo'mitalari va idoralari, korxonalar, tashkilotlar, muassasa, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhit holatini o'rganish va kuzatish, chora-tadbirlarini qo'llash bilan bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar yig'indisini o'z ichiga oladi



Ekologik monitoringning maqsadi

Monitoringning asosiy maqsadi tabiiy muhitning inson faoliyati ta'sirida o'zgarishini kuzatish, olingan ma'lumotlar asosida baholash va tegishli boshqaruv apparatini ishga solishdir. Monitoring asosida atmosfera havosi, suv havzalari, yerosti suvlari, tuproq, o'simlik qoplaminig turli chiqindilar, zaharli kimyoviy moddalar, radioaktiv elementlar bilan ifloslanishi kuzatiladi. Kuzatish ishlari insonning ma'lum ekologik sharoitda yashashining buzilishiga qaratiladi. Atrof muhitning o'zgarish darajasi hali ifloslanmagan tabiiy sharoit holatiga nisbatan olinadi. Ya'ni atrof-tabiiy muhit barqarorligini saqlashda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirgan holda olib borilishini taqozo etadi. Hozirgi va kelajak avlodga barqaror atrof-tabiiy muhitni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 29-moddasiga asosan, ekologiya nazoratining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan.



Ekologik monitoring

- atrof-tabiiy muhit holatini hamda xo'jalik yuritish va boshqa faoliyat ta'siri ostida unda bo'lgan o'zgarishlarni kuzatib borish;
 - atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof muhitni sog'lamlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlar talablari va atrof tabiiy muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlar bajarilishini tekshirish.
- Akademik I.P. Gerasimov tomonidan monitoring tashkil qilishning bioekologik, geokologik va biosfera bosqichlari ajratilgan.




Ekologik monitoring bosqichlari

- Bioekologik monitoring
- bosqichi yoki pogʻonasida atrofmuhitning ifloslanishi uning inson salomatligiga taʼsiri nuqtayinazaridan kuzatiladi. Mazkur pogʻonada odamlarning kasallanishi, oʻlim, tugʻilish, uzoq umr koʻrish va boshqa maʼlumotlardan foydalaniladi. Bu maʼlumotlar insonning atrofmuhit oʻzgarishiga aks taʼsiri hisoblanadi. Ushbu bosqichda monitoring kuzatish shoxobchalari va sanitariyagigiyena xizmati maʼlumotlariga tayanib ish koʻriladi. Bioekologik monitoring inson salomatligi uchun zararli boʻlgan chiqindi va moddalar boʻyicha kuzatishni tashkil qiladi



Ekologik monitoring bosqichlari

Geoekologik (geotizimli) monitoring bosqichida tabiiy-hududiy, tabiiytexnogen va demografik geotizimlari kuzatiladi va nazorat qilinadi. Mazkur bosqich uchun tabiatni ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan miqdori va tabiiy komplekslarning o'zo'zini tozalash qobiliyati haqidagi ma'lumotlar muhim hisoblanadi. Kuzatishlar geografik statsionarlarda, maxsus zona yoki mintaqaviy poligonlarda olib boriladi. Geotizimli monitoringni amalga oshirishda hududda havo, suv, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi, inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va ifloslantiruvchi manbalar bo'yicha kuzatish tashkil qilinadi. Bu borada geotizimning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinmogi lozim. Cho'llarda kemiruvchilar turli xatarli kasalliklarni tarqatuvchi manba hisoblanadi. Buning oqibatidama'lum vaqt mobaynida katta hududda yuqumli kasallik o'chog'iyuzaga keladi. Shuni hisobga olib, cho'l geotizimida muntazam ravishda monitoring ishlarini olib borish lozim bo'ladi



Ekologik monitoring bosqichlari


Biosfera monitoring bosqichining asosiy vazifasi atrofmuhitni dunyo miqyosida kuzatishdan iborat. Bunda atmosferaning changlanishiga, Dunyo okeanining ifloslanishiga va boshqa ko'rsatkichlarga ko'proq e'tibor beriladi. Kuzatishning asosiy maqsadi dunyo miqyosida bo'ladigan o'zgarishlarning aholi salomatligi vafaoliyatiga ta'sirini baholashdir. Kuzatishlar biosfera poligonlaritizimida olib boriladi. Biosfera poligonlari tizimiga qo'riqxonalarda aholining xo'jalik faoliyati zonalari kiradi. Atmosferani kuzatishda asosiy e'tibor chang miqdorining ortibketishiga, «issiqxona samarasi»ning vujudga kelishiga, qutbiymintaqalarda ozon qatlamining yupqalanishiga qaratiladi.



Ekologik audit to'g'risida


Ekologik audit korxonani atrof muhit bilan bog'liqligini boshqarish mexanizmi sifatida XX asrning 70-yillarida AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya va Niderlandiyada tashkil topdi. Ekologik auditning ob'ekti – korxonalarining atrof muhitga va tabiat ob'ektlariga ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq xo'jalik hamda boshqa faoliyati, shuningdek bunday faoliyatning natijalari bo'lib hisoblanadi. Ekologik auditning predmeti bo'lib quyidagilarni keltirish mumkin;

- korxonaning atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish bilan bog'liq faoliyat turlari;



Ekologik audit to`g`risida

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda atrof muhitning holati;
- atrof muhitni boshqarish tizimining holati;
- tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi va belgilangan ekologik talablarga rioya qilinish darajasi;
- korxonada tabiiy resurslardan foydalanish darajasi;
- korxonalarda faoliyat davomida yuzaga kelayotgan chiqindilarni joylashtirish jarayoni;
- ekologik xavfsizlik bilan bog'liq qonungchilik talablarini buzilishi oqibatida yuzaga keladigan moliyaviy tavakkalchiliklar



Ekologik audit to`g`risida

Ekologik auditni o`tkazish jarayonida u yoki bu korxonada, ishlab chiqarish yoki texnologik jarayonini xavflilik darajasi bir qator omillar yordamida o`rganiladi va ular atrof muhitga ta`siri baholanadi. Ekologik audit yo`nalishi bo`yicha Rossiya Federatsiyasida ma`lum darajada tajriba yuzaga kelgan bo`lib, uni yaratilishiga xalqaro audit bozorida yuqori nufuzga ega bo`lgan “Artur Andersen”, “KPMG”, “Deloyt end Tush”, “Parays Uoterxaus Kupers” va “Ernest end Yang” kabi auditorlik kompaniyalari katta hissa qo`shishgan.



Ekologik menejment

«Ekologik menejment» tushunchasi «atrof muhitni muhofaza qilish» yoki «tabiatdan foydalanishni boshqarish» iboralari sifatida foydalaniladi. Ekologik havfsizlikni ta'minlashda, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni boshqarish tizimlari ostida ekologik auditning o'rni va roli tushunish uchun «ekologik boshqarish» va «ekologik menejment» tushunchalarining umumiy tomonlari va farqlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ekologik menejment korxonada umumiy menejment tizimining ajralmas qismi bo'lib, u xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ekologik siyosatni ishlab chiqarish, uni joriy qilish va ularni amalga oshirish ustidan nazoratni olib borish, olingan natijalarni baholash va ularni korxonada moliyaviy holatiga ta'sirini o'rganishdan iborat bo'lgan jarayondir.



O'ZBEKISTONDA ATROF-MUHIT MONITORINGINI AMALGA OSHIRISH

O'zbekistonda qishloq va suv xo'jaligi, tog'kon, kimyo, metallurgiya va boshqa sanoat tarmoqlarining so'nggi 3040 yil davomida tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida atrofmuhitda kuchli o'zgarishlar ro'y berdi, mintaqaviy va mahalliy ekologik muammolar kelib chiqdi. Natijada atrofmuhit holatini muntazam kuzatish, nazorat qilish va boshqarishning yagona davlat tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati tug'ildi. Atrofmuhit monitoringi mamlakatimizdagi bir qancha muassasa va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Atmosfera havosi va suv havzalarining ifloslanishi O'zbekiston Hidrometeorologiya Bosh boshqarmasi tomonidan, yerosti suvlarining ifloslanishi, noxush tabiiy geografik jarayonlarning rivojlanishi O'zbekiston Geologiya vazirligiga qarashli «O'zbekgidrogeologiya» korxonasi tomonidan, tuproqlarning sho'rlanishi va grunt suvlari me'yor, kollektor suvlari minerallasuv darajasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan, o'rmonlar holati O'rmon xo'jaligi qo'mitasi tomonidan, atrofmuhitning inson salomatligiga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan masalalar Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan kuzatib, nazorat qilib turiladi.

O'ZBEKISTONDA ATROF-MUHIT MONITORINGINI AMALGA OSHIRISH

- Bu tashkilot va muassasalarning monitoring sohasidagi faoliyati Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan boshqariladi. Bu qo'mita atrof muhit bo'yicha turli axborot va ma'lumotlarni yig'ib, yuzaga kelgan ekologik vaziyatni baholaydi. Noxush ahvol vujudga kelgan bo'lsa, tegishli tashkilotlarga xabar berish bilan birga uning oldini olish bo'yicha tegishli choratadbirlarni belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi. Atrofmuhit monitoringini kuzatish va nazorat qilish turli usullarda olib boriladi: aerokosmik, avtomatik laboratoriyalar, ko'chma laboratoriyalar va h.k. Aerokosmik usul bilan atmosfera havo massalarining yo'nalishi, havoning ifloslanishi, tog'lardagi muzliklar, qorliklar rejimi, tuproq va o'simlik qoplamlarining holati, ekinlarning o'sishi, ularning holati hamda hosildorligi kuzatib turiladi. O'zbekistonning ma'lum bir hududi aerokosmik usulda kuzatilayotganda olingan ma'lumotlar avtomatik ravishda tegishli tashkilotlarga uzatib turiladi.

Mavzu yuzasidan savollar:

- 1. Ekologik monitoring – nazorat tushunchasini izohlab bering?**
- 2. Ekologik monitoringning maqsadi va predmeti nima?**
- 3. Ekologik monitoringning bosqichlarini asoslab bering?**
- 4. Ekologik aydit to`g`risida?**
- 5. Ekologiyk menenjment tushunchasi?**
- 6. O`zbekistonda atrof-muhit monitoringini amalga oshirish?**



A close-up photograph of a bouquet of light pink roses. The roses are the central focus, surrounded by small white baby's breath flowers and silver, curly ribbons. The background is dark and out of focus.

***E`tiboringiz uchun
tashakkur***